

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**O'ZBEK ADABIYOTI II  
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:

100000 – Ta'lism

Ta'lism sohasi:

110000 – Ta'lism

Ta'lism yo'nalishi:

60111400-O'zbek tili va adabiyoti

|  |   |   |  |                                    |
|--|---|---|--|------------------------------------|
| <b>Fan/modul kodi</b><br><b>O'A208</b>   | <b>O'quv yili</b><br><b>2024-2025</b>   | <b>Semestr</b><br><b>4</b>                      | <b>ECTS - Kreditlar</b><br><b>4</b>        |                                    |
| <b>Fan/modul turi</b><br><b>Majburiy</b> | <b>Ta'lim tili</b><br><b>O'zbek</b>   |   | <b>Haftadagi dars soatlari</b><br><b>4</b> |                                    |
| 1.                                       | <b>Fanning nomi:</b>  | <b>Auditoriya<br/>mashg'ulotlari<br/>(soat)</b> | <b>Mustaqil<br/>ta'lif (soat)</b>          | <b>Jami<br/>yuklama<br/>(soat)</b> |
|  | <b>O'zbek adabiyoti II</b>  | 60  | 60   | 120                                |
| 2.                                       | <p><b>I. Fanning mazmuni.</b></p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni adabiyotning tarixiy asoslari, tarixiy o'tmishda ijod qilgan shoir va yozuvchilarning ijod namunalarini (tushunchalar, nazariyalar va ularning isboti, sohaning amaliy masalalarini yechish usullari va boshqalar) bilan tanishtirishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, tarixiy adabiyotning nazariy va amaliy muammolarini hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.</p> <p>Fanni o'qitishning vazifasi – talabalarga adabiyot tarixi fanining ahamiyati, o'zbek adabiyotining tarixiy asoslari va nazariy masalalariga oid bilim va tushunchalar berish, tarixiy adabiyotning mavzui, mazmun-mundarijasi, hozirgi kun bilan bog'liqligi va boshqa sohalar bilan munosabati, o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish va natijada talabalarda o'zbek adabiyotining asoslari, og'zaki va yozma adabiyotning tarixiy shakllanish bosqichlari kabilarni bilish, o'z fikrini hayotiy misollar orqali asoslash, o'rganganlarini amalda qo'llay olishga o'rgatishdir.</p> <p><b>II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Mashrab va Xo'janazar Huvaydo ijodiy merosi</b><br/>Mashrab haqida ma'lumot beruvchi manbalar. "Devoni Mashrab" she'riy to'plami, o'ziga xos xususiyatlari, janr tabiatni. "Qissai Mashrab"da shoir siymosi. Xo'janazar Huvaydoning ijodiy merosi va "Rohati dil" dostoni</p> <p><b>2-mavzu. Qo'qon adabiy muhiti. Amiriylayotni va ijodi, Gulxaniyning ijodiy merosi</b><br/>Gulxaniy she'riyati va uning mazmun-mohiyati. "Zarbulmasal" asari. Masal janri xususiyatlari, asarning kompozitsiyasi, mazmun-mohiyati, g'oyaviy-badiiy jihatlari.</p> <p><b>3-mavzu.Jahon otin Uvaysiy va Mohlaroyim Nodira ijodiy merosi.</b><br/>Uvaysiy she'riyatida shoira dunyoqarashiga oid muhim qirralar: zamona va shoira shaxsiyati o'rtaqidagi ziddiyatlarning badiiy ifoda etilishi. Nodira she'riyatida ruhiyat tasviri va ishq talqini</p> |   |  |                                    |

#### **4-mavzu. Xorazm adabiy muhiti. Muhammad Rahimxon II ning adabiy muhit rivojidagi o'rni. Munis ijodi**

Munisning lirik shoir, tarixchi, tarjimon, murabbiy va xattot sifatidagi ijodiy merosi. "Munis ul-ushshoq" devoni, janr tabiat, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari

#### **5-mavzu. Xorazm adabiy muhiti. Ogahiy ijodi**

Ogahiy hayoti va ijodi. "Ta'viz ul-oshiqin" devoni. Devon debochasidagi ma'lumotlar. Devonning janr tabiat, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Ogahiy – tarixchi va tarjimon.

#### **6-mavzu. XVII-XVIII asr adabiyoti. Nurmuhammad Nishotiy, Sayyodiy va Sayqaliy dostonlari haqida ma'lumot.**

Nishotiyning "Husnu Dil" dostoni va uning muqaddimasida muallif hayoti, dostonning yaratilish tarixiga doir ma'lumotlar. Sayyodiyning "Tohir va Zuhra", Sayqaliyning "Bahrom va Gulandom" dostonlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

#### **7-mavzu. Muqimiy ijodiy merosi**

Muqimiy hayoti va ijodiy merosi, janr xususiyatlari. Muqimiy she'riyatida xalqona ohanglar. Muqimiy hajviyoti va sayohatnomalari. Davriy o'zgarishlarning badiiy ijodda aks etishi.

#### **8-mavzu. Zokirjon Furqat ijodiy merosi**

Furqat she'riyatida an'ana va mahorat. Shoir publitsistikasi, romanlari va tarjima asarlari. Shoir masnaviylarida ma'rifatparvarlik g'oyalaring ifodasi.

#### **9-mavzu. Milliy uyg'onish (jadid) adabiyoti**

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot. "Usuli jadid" maktablari. Milliy matbuot. Yangi milliy teatr. Badiiy adabiyot. Adabiy tanqid. Badiiy tarjimachilik.

#### **10-mavzu. Maxmudxuja Behbudiy ijodi**

Behbudiy va Turkiston milliy matbuoti. Ijodiy merosi. "Padarkush" pyesasi. "Sayohat xotiralari", adabiy-estetik qarashlari.

#### **11-mavzu. Abdulla Avloniy hayoti va ijodi**

Avloniyshunoslik. Hayot sahifalari. Yangi maktablar va ijtimoiy faoliyat. Avloniy – aktyor, rejissyor, teatr badiiy rahbari, dramaturg, tarjimon va pedagog. Avloniy publitsistikasi.

#### **12-mavzu. Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi**

Fitratning adabiy-madaniy merosi. Fitrat publitsistikasi. Fitrat – adabiyotshunos olim. Fitratning ilmiy-nazariy qarashlari va jadidchilik g'oyalari. Fitrat dramaturgiyasi. Fitrat she'riyatida ozozdlik va shaxs erki motivlarining

ifodalanishi. Fitrat hikoyalari da ramziylik.

### **13-mavzu. Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va ijodi**

“Devoni Nihoniy” da o’zbek mumtoz adabiyoti an’analari. Hamza darsliklarida ma’rifatparvarlik. Hamza drammalari va ularda jadidchilik g’oyalarining ifodalanishi

### **14-mavzu. Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi**

Jadidchilik va Abdulla Qodiriy hikoyalari. Hajviy asarlari. Birinchi roman – “O’tkan kunlar”ning yaratilishi. Qodiriy romanlarining turkiy xalqlar adabiyotiga ta’siri

### **15-mavzu. Cho’lpon hayoti va ijodi**

Cho’lpon tarjimayi holi. Jadidchilik va Cho’lpon she’riyati. Hikoyalari. Drammalari. “Kecha va Kunduz” romani. Romanning o’zbek realistic nasri shakllanishi va taraqqiyotidagi ahamiyati.

## **III. Seminar mashg’ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg’ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Mashrab she’riyati tahlili. Huvaydo lirik shoir. “Rohati Dil” – didaktik doston.
2. Amiriyl – zullisonayn shoir. “Zarbulmasal” badiiyati tahlili
3. Uvaysiy lirkasining g’oyaviy-badiiy xususiyatlari, Nodira she’riyatida ishq talqini va ruhiyat tasviri
4. Munis she’riyati va g’azaliyoti tahlili
5. Ogahiy she’riyatida an’ana va mahorat
6. Nishotiyning “Husnu Dil” dostonida badiiylik
7. Muqimiy she’riyatida lirik qahramon va ruhiy-ma’naviy qiyofasi
8. Furqat lirkasida ma’rifatparvarlik g’oyalarining ifodasi.
9. “Xalq kitoblari”ning o’ziga xos xususiyatlari va badiiyati
10. M. Behbudiy hayoti va ijodi haqida
11. Avloniy ijodida ko’p qirralilik
12. Fitrat-adabiyotshunos. “Abulfayzxon” birinchi o’zbek tragediyasi
13. Hamza Hakimzoda Niyoziy – dramaturg
14. “Mehrobdan chayon” romanida tarixiylik va badiiylik
15. “Kecha va Kunduz” romanida xarakter yaratish mahorati

## **Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlari**

Mustaqil ta’limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo‘yilgan masalani o’rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan

dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

### **Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Rahimbobo Mashrab ijodida falsafiylik
2. Xo'janazar Huvaydo ijodida o'ziga xoslik
3. Gulxaniy ijodida masallar badiiyati
4. Jahon otin Uvaysiy g'azallari mavzusi va tahlili
5. Mohlaroyim Nodira lirikasining janriy xususiyatlari
6. Munis Xorazmiy ijodiy merosi
7. Nishotiy hayoti va ijodi
8. Ogahiy tarixnavis
9. Zokirjon Furqat hayoti va ijodi
10. Publitsistika rivojida jaded ijodkorlarining o'rni
11. Avloniy drammalarida jadidchilik g'oyalari va davr fojeasi talqini
12. Fitrat prozasida davr illatlarining fosh qilinishi
13. Hamzaning "Salom ayting" turkum she'rlarini tahlil qilish
14. Abdulla Qodiriyning xarakter yaratish mahorati
15. Cho'lponning xarakter yaratish mahorati

3.

## **VII. Ta'lif natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

### **Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

- O'zbek adabiyotining tarixiy taraqqiyoti davomida so'z san'ati takomili, estetik ta'sirini his etish, jumladan, adabiy-badiiy matn ustida ishlash, badiiy matnlarda qo'llaniladigan tasviriy vositalar, she'riy san'atlar yuzasidan **bilimga ega bo'ladi**.
- Lug'at ustida ishlay olish, eski o'zbek yozuvi, arab, fors tillaridan xabardor bo'lish va muhim xulosalar yasay olish, o'zbek adabiyotining yuksak g'oyaviy-badiiy va ilmiy-nazariy bilimlarini o'rganishi uchun talabalar quyidagi **ko'nikmalarga ega bo'ladi**:

- o'zbek adabiyoti konsepsiyasining o'ziga xosligi;
- o'zbek mumtoz adabiyotining ifoda usullari;
- o'zbek adabiyoti namoyondalari ijodining yetakchi tamoyillari;
- o'zbek adabiyotining taraqqiyot bosqichlari;
- o'zbek adabiyotining yetakchi xususiyatlarini aniqlash;
- o'zbek adabiyotida jadidchilikning o'rnini belgilash;
- o'zbek adabiyotining yetuk namoyondalar hayoti va ijodini tavsiflash;
- o'zbek adabiyotining tarixiy-milliy, milliy-zamonaviy xususiyatlarini anglash;
- har bir ijodkorning o'zbek adabiyotida tutgan o'rnini aniqlash.

Bu esa talabalarda o'zbek adabiyoti nafosatini teran his qila olish va tahlil etish **malakasiga ega bo'lishlariga yordam beradi**.

|    |  |
|----|--|
|    | <b>VIII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</b>  |
| 4. | <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma’ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo‘lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar</li> </ul>   |
| 5. | <p style="text-align: center;"><b>IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>   |
| 6. | <p style="text-align: center;"><b>X. Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. N.Rahmonov. O‘zbek adabiyoti tarixi T.:”Sano-standart”-2017</li> <li>2. R.Vohidov, H.Eshonqulov O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi o‘quv qo‘llanma T.; “Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti – 2006</li> <li>3. S.Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. T.: “Yangi asr avlodi” 2004.</li> <li>4. R.Orzibekov. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. T. “Fan”, -2006.</li> <li>5. B.Qosimov. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. T. - 2006.</li> <li>6. H.Karimov. Istiqlol davri adabiyoti. Darslik. “Yangi nashr”, 2010.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>XI. Qo‘srimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. A.Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: “Sharq” 1990.</li> <li>2. A.Qayumov. Tanlangan asarlar. 10 jildlik. T.: “Mumtoz so‘z” 2015.</li> <li>3. H.Qudratillayev. Boburning badiiy mahorati haqida. T.: “Sharq” 2005.</li> <li>4. H.Boltaboyev, N.Rahmonov. mumtoz adabiyoti namunalari. 3-jild. T.: “O‘zMU” 2002.</li> <li>5. O.Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. – T.: Sharq, 2004.</li> <li>6. E.Vohidov. She’r dunyosi. – T.: Sharq, 2001.</li> <li>7. A.Oripov. Tanlangan asarlar. 4 tomlik. – T.: G’.G’ulom nashriyoti, 2001.</li> <li>8. U.Normatov. Nafosat gurunglari. – T.: Mumtoz so‘z, 2011.</li> <li>9. A.Rasulov. Badiiylik-bezavol yangilik. T.: Sharq , 2007.</li> <li>10.N.Jabborov. Adabiyot va milliy ma’naviyat.-T.:Ma’naviyat,2015</li> <li>11.S.Mirvaliyev.O’zbek adiblari.-Yozuvchi,2000.</li> <li>12.U.Dolimov. Turkistonda jaded maktablari.-T.:Universitet,2006.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbalari</b></p> <p><a href="http://www.pedagog.uz">www.pedagog.uz</a><br/> <a href="http://www.cspl.uz">www.cspl.uz</a><br/> <a href="http://www.edu.uz">www.edu.uz</a><br/> <a href="http://www.natlib.uz">www.natlib.uz</a> (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)</p> |

|    |  |
|----|--|
|    | <a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a> - Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portal<br><a href="http://www.pedagog.uz">www.pedagog.uz</a>  |
| 7. | <b>Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil “_____” _____ dagi qarori bilan tasdiqlangan</b>  |
| 8. | <b>Fan/modul uchun ma'sul:</b><br><b>N.Raxmonova</b> - CHDPU, “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasи o‘qituvchisi   |
| 9. | <b>Taqrizchilar:</b><br><b>A.Davlatova</b> - CHDPU, “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasи dotsenti, filologiya fanlari doktori(DSc)<br><b>S.O‘tanova</b> - O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi |